



NIZOLARNI MUQOBIL HAL QILISH USULI SIFATIDA MEDIATSIYANI  
HAKAMLIK SUDLARIDA QO'LLASHNING O'ZIGA XOS AHAMIYATI

Ibratova Feruza Boboqulovna

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori, yuridik fanlari doktori*

Qodirov Murodillo Turg'unboy o'g'li

*Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada fuqarolarning nizolarni muqobil hal etish usullariga bo'lgan munosabatlarini ilmiy tahlil qilib hakamlik sudlari jarayonida mediatsiyani qo'llash mexanizmini tartibga soluvchi qonun hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan jihatlar yoritilgan bo'lib va shu bilan birgalikda, Nizolarni muqobil hal qilish tushunchasi, uning mohiyati, avzallik jihatlari, nizolarni muqobil hal qilishning o'ziga hos hususiyatlari, mediatsiya tushunchasi va mohiyati mediatsiyaning asosiy prinsiplari, hakamlik sudi tushunchasi va mohiyati, hakamlik sudining asosiy prinsiplari va vazifalari yoritilgan. Mediatsiyani takomillashtirish uchun "Yo'nalishlar bo'yicha tayyorlov o'quv kurslari", "Mediatsiya ijrosini taminlash mexanizmini takomillashtirish", "Mediatsiyadan keyingi sud jarayonini yopiq holatda olib borish", "Mediatsiyani yengil jinoyatchilikka tatbiq etish" tushunchalari, qonun hujjatlarni samaradorligi va ishlash mexanizmini baholash, mediatsiyadan keying huquqiy oqibatlarni bajarish tartibini rivojlantirishga qaratilgan muhim amaliy ahamiyat kasb etuvchi takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** *Hakamlik sudi, Mediatsiya tushunchasi, Davlat boji, Hakamlik sudi yig'imi.*

**Аннотация:** *В данной статье освещаются аспекты, направленные на совершенствование законодательства, регулирующего механизм применения медиации в арбитражных процессах путем научного анализа отношения граждан к альтернативным методам разрешения споров, и, вместе с тем, понятие альтернативного разрешения споров, его сущность, преимущества, особенности альтернативного разрешения споров, понятие и сущность медиации являются основными принципами медиации., понятие и сущность арбитража, выделены основные принципы и задачи арбитражного разбирательства. Для совершенствования медиации важное практическое значение приобретают понятия "подготовительные учебные курсы по направлениям", "совершенствование механизма обеспечения исполнения медиации", "проведение постмедиационного судебного разбирательства в закрытом режиме", "применение медиации к легкому преступлению", оценка эффективности и механизма функционирования законодательства, разработка порядка исполнения правовых последствий после медиации. предложения разработаны.*

**Ключевые слова:** *Третейский суд, понятие медиации, государственная пошлина, арбитражный сбор.*

**Annotation:** *In this article, the law regulating the mechanism of application of mediation in the process of arbitration courts, scientifically analyzing the relationship of citizens to alternative methods of dispute resolution, highlights aspects aimed at improving the documentation and, together with this, the*



*concept of Alternative Dispute Resolution, its essence, advantages, peculiarities of alternative dispute resolution itself, the concept and essence of mediation, the main principles and duties of the arbitration court are covered. To improve mediation, the concepts of “preparatory training courses in directions”, “improving the mechanism for ensuring mediation execution”, “conducting the post-mediation trial in a closed state”, “applying mediation to light crime”, the law has developed proposals of significant practical importance aimed at assessing the effectiveness and mechanism of operation of documents, developing the procedure for performing legal consequences after mediation*

**Key words:** Court of Arbitration, Concept of Mediation, State duty, Court of Arbitration fee.

Mamlakatimizda fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy buzilishini oldini olish va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning izchil ishlash mexanizmlarini yaratish va uni rivojlantirish uchun turli xil islohatlar amalga oshirilib kelmoqda. Ushbu huquqiy islohatlar asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida nizolarni hal qilishning muqobil usullarini amaliyotga tatbiq qilish va uning huquqiy asoslari va manbalarini rivojlantirish hisoblanadi<sup>10</sup>. Hozirgi zamonaviy dunyoda nizolarni hal etishni turli hil usullari shakllanib va rivojlanib borayotgan zamonda buning aksini O'zbekiston Respublikasining huquq sohasida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi nizolarni muqobil hal etishning zamonaviy usullari mavjud<sup>11</sup>. Ular Hakamluk sudlari, Xalqaro tijorat arbitraj sudlari va mediatsiyadir. Hakamluk sudlari nizolarni hal etishning muqobil usullaridan biri bo'lib fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ hisoblanadi.

Xalqaro arbitraj sudlari Hakamluk sudlariga o'xshash nizolarni hal etishning muqobil usuli bo'lib, asosan iqtisodiy nizolarni va tadbirkor tashkilotlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqadi. O'zbekiston Respublikasida “Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida”gi qonun 2021-yil 16-fevralda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasida nizolarni hal etishni muqobil usullarini takomillashtirish uchun bir nechta qonun hujjatlarni qabul qildi va tarixiy yo'lni bosib o'tgan<sup>12</sup>. Misol uchun, “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi” qabul qilinib, unda O'zbekiston Respublikasi sud tizimini rivojlantirish va iqtisodiy va fuqarolik nizolarini hal etishning muqobil usullarini shakllantirishga qaratilgan. Shu sababli ham, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan 2018 yil 3-iyul kuni “Mediatsiya to'g'risida”gi qonun qabul qilindi<sup>13</sup>. Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilgan bunday islohatlar fuqarolarning sud-huquq tizimiga munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, bundan tashqari bu sohani yanada

<sup>10</sup> Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 57-62.

<sup>11</sup> Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.

<sup>12</sup> Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

<sup>13</sup> Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 86-92.



rivojlantirish maqsadida 2020-yil 17-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-son Qarori qabul qilnganligini alohida qayd etishimiz darkor. Bunday ishlar shuni ko'rsatib turibdiki amaliyotga qo'lanilgan ushbu qonun hujjatlar fuqarolar va tadbirkorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini nafaqat vakolatli sudlarda himoya qilish balki nizolarni muqobil hal etish usullaridan foydalangan holda muammoni samarali va ijobiy hal etish imkonini yaratdi.

Mazkur maqolani yoritish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi<sup>14</sup>. Mazkur maqolada nizolarni muqobil hal qilish usullari, uning bugungi kundagi xususiyatlari ,xorij tajribalari, mediatsiya va hakamluk sudining tuzilishi, prinsiplari undagi mavjud kamchiliklar o'rganilib tahlil qilindi. Xorij davlatlarining "mediatsiya" va "arbitraj" qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining "Hakamluk sudlari to'g'risida"gi 2006 yil 16- oktabr O'RQ-64-O'RQ metodologik manba bo'lib belgilandi .

Nizolarni muqobil hal etish bu fuqarolar yoki yuridik shaxslar o'rtasidagi kelib chiqqan nizolarni qonun hujjatlar bilan belgilangan yoki huquqiy munosabat ishtirokchilari o'rtasida davlatning odil sudlov tizimidan tashqarida hal qilishga qaratilgan tartib-taomillari, usullari va mexanizmlaridir<sup>15</sup>. Nizolarni muqobil hal etish usullari xorijiy mamalakatlarda uzoq yillar davomida qo'lanilib va shu bilan birgalikda rivojlanib kelmoqda. Hattoki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomining oltinchi bobida "Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish" masalalariga bag'ishlangan bo'lib ushbu nizomning 33-moddasida nizolarni muzokaralar orqali hal etish, yuritish, tekshirish, vositachilik, yarashuv, shu bilan birgalikda, arbitraj yo'li bilan hal etish nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi sifatida belgilab qo'yilgani<sup>16</sup> bu sohaning xalqaro ahamiyatini yanada rivojlantirdi. Mamlakatimizda nizolarni hal qilishinig muqobil usullarini joriy qilishga oid izchil islohatlar amalga oshirilib, ularning huquqiy asoslari moddiy va protsessual qonunchilikda mustahkamlanib, bosqichma-bosqich takomillashib bormoqda<sup>17</sup>.

O'zbekiston Respublikasida Hakamluk sudlarining tashkil etilishi davlatimiz tomonidan 1995-yil 22-dekabrda 1958-yil 10-iyunda "Chet el arbitraj qarorlarini tan olish va uni ijro etish haqida"gi Nyu-York konvensiyasiga qo'shilishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi chet el arbitraj sudlarini qarorlarini tan olish va uni ijrosini taminlashni o'z zimasi ga olishni bildiradi. Bu o'z navbatida mamlakatimizda ham

<sup>14</sup> Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.

<sup>15</sup> Ibratova F. Legal Problems of the Concepts Legality, Justification and Justice by Judicial Acts //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 16.

<sup>16</sup> Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 86-92.

<sup>17</sup> Boboqulovna I. F., Mamarjon o'g'li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.



nizolarni hal etish usullarini joriy etish, hakamlik sudlari, arbitraj sudlarini shakillantirishga olib keldi<sup>18</sup>.

2006-yil 16-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi va 2007-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirishi bilan mamlakatimizda hakamlik sudlari o'z faoliyatini yurita boshladi.

Ushbu qonunda asosiy tushunchalar sifatida hakamlik sudiga huquqiy ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra hakamlik sudi deganda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki muvaqqat hakamlik sudi shaklida tshkil etilib, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ hisoblanadi<sup>19</sup>. Hakamlik sudlari fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasidagi nizolarni muqobil hal etish bilan bir qatorda bir nechta afzaliklari mavjud. Ular quydagilar bo'lib:

- Vakolatli davlat sudlariga nisbatan xarajatlarni kamligi.
- Taraflar tomonidan hakamlik sudyasini tanlash imkoniyati.
- Hakamlik jarayoning maxfiyligi.
- Davlat sudlari hakamlik sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarorini qayta ko'rib chiqishiga haqli emasligi.
- Hakamlik sudining hal qiluv qarori ixtiyoriy ijro qilinmagan taqdirda majburiy ijro qilish mexanizmining mavjudligi.
- Hakamlik sudining hal qiluv qarorining ixtiyoriy ijro qilishi.
- Hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan paytdan e'tiboran kuchga kirishi, Apellyatsiya va kassatsiya instantsiyalarining mavjud emasligi'
- Davlat sudlariga nisbatan qisqa muddatlarda ko'rib chiqilishi.
- Taraflar o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlarining saqlanib qolishi.

Yuqorida sanab o'tilgan afzaliklar hakamlik sudlarini O'zbekiston Respublikasining sud-huquq tizimida o'z o'rnini egalash va vakolatli sudlarga ular tomonidan hal etilyotgan nizoli ishlar hajimini kamaytirishga olib kelmoqda. Biroq, hakamlik sudlarida sanab o'tilgan afzaliklardan tashqari, kamchiliklar ham mavjud bo'lib ulardan biri hakamlik sud jarayonida mediatsiyani qo'llanilishidir<sup>20</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 37<sup>1</sup>-moddasida shu narsani takidlab o'tgan. Unga ko'ra hakamlik muhokamasida mediatsiya nizoni ko'rib chiqish jarayonida hakamlik sudining qarori qabul qilinguniga qadar qo'llanilishi mumkin. Hakamlik muhokamasining taraflari tomonidan mediatsiya tartib-taomillarini amalga oshirish haqida kelishuv tuzilgan taqdirda, hakamlik sudi mediatsiya tartib-taomili tugaguniga qadar hakamlik muhokamasini qoldirish to'g'risida ajrim chiqaradi. Agar taraflar mediativ kelishuvni tuzsa, hakamlik sudi hakamlik muhokamasini

<sup>18</sup> Ibratova F. B. The Concept and Characteristics of Bankruptcy Procedures for Business Entities With the Status of a Legal Entity //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 20. – C. 143-147.

<sup>19</sup> Salimova.I.M. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) – T.: TDYU, 2022. – B.211

<sup>20</sup> Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – T. 45.





tugatadi<sup>21</sup>. Ushbu qonunning mazmun mohiyatiga ko'ra Hakamlilik sudi jarayonida mediatsiyani qo'llash mumkin ammo, hakamlilik sudi xarajatlarini qoplash uchun to'langan pul miqdorini qaytarish mexanizmi "Hakamlilik sudlari to'g'risida"gi qonunda mavjud emasligi hakamlilik sudlari sohasidagi kamchiliklaridan biridir<sup>22</sup>. Bu kamchilikni sababi shundan iboratki, vakolatli sudlarda agar taraflar o'rtasida nizoni hal qilish uchun hakamlilik sudiga yoki mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa davlat boji qaytariladi bu O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi qonun 18-moddasining 8 va 9-bandlarida belgilab qo'yilgan. Natijada, Hakamlilik sudi jarayonida mediatsiyaning qo'llanilishi oqibatida sarflangan xarajatlar qaytarilishi yoki qaytarilmasligi ochiq qolgan ya'ni bo'shliq mavjud.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotga ko'ra vakolatli sudlarda fuqarolar yoki yuridik shaxslar o'rtasidagi nizoni vakolatli sudda hal etish jarayonida vakolatli sudning sudyasi sudyalari muhokamasigacha bo'lgan jarayon davomida taraflarning roziligi asosida mediatsiya yoki nizolarninmg hal etish usullardan foydalanilishi oqibatida davlat boji qaytarilishi belgilangan. Shu bilan birgalikda, Ozbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni 37-moddasida ya'ni ijro ishini yuritish vaqtida ham tomonlar mediativ kelishuvga ixtiyoriy rozi bo'lsalar ijro ishi yuritish davlat ijrochisi tomonidan tugatiladi<sup>23</sup>.

Bundan tashqari mediatsiyaning bir nechta afzaliklari mavjud bo'lib, ular quydagilar:

1. Davlatning vakolatli sudlariga qaraganda qisqa muddatlarda nizoni hal qilish imkoniyat.
2. Taraflar ixtiyoriy va kelishgan holda mediatori va mediatsiyani o'tkazish tartib-taomillarini mustaqil tanlash imkoniyati mavjudligi<sup>24</sup>.
3. Nizolarni hal etishda taraflarning manfaatlarini inobatga olinishi.
4. Mediatsiyada taraflar o'rtasida manfaatli kelishuvga erishilganligi
5. Maxfiylik printsipi asosida olib borilishi.
6. Taraflarga maqul joy, qulay vaziyatda va norasmiy ravishda mediatsiya jarayoni olib borilishi.
7. Nizolarni hal etishga sarflangan sarf-xarajatlarning kam miqdorda bo'lishi.

Bu sanab o'tilgan afzaliklar fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal etishda vakolatli sudlardan ko'ra mediatsiya va nizolarni hal etish usullaridan foydalanishga undo'vchi yo'l bo'lib xizmat qiladi<sup>25</sup>. Biroq amalda fuqarolarning mediatsiya afzaliklarini to'liq tushinib yetmasligi va unga ishonch bildirmasligi, shu bilan birgalikda, mediatsiyani sud jarayonida davlat bojini qaytib olish vositasi sifatida qarashi milliy qonunchiligimizda nizolarni hal

<sup>21</sup> Отахонов Ф. Правовые основы и перспективы развития медиации в Узбекистане // Правосудие. 2019.

<sup>22</sup> Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES // "SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022.

<sup>23</sup> Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – T. 2021. – C. 45.

<sup>24</sup> Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 485-501.

<sup>25</sup> Mediatsiya: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi, professional mediator A.A.Xakberdiyev – Toshkent: TDYUU, 2022. – B.131



qilishning muqobil usullari tushunchasi va ishlash mexanizmining huquqiy asosi mustahkamlanmaganligini bildirib turadi<sup>26</sup>. Shuningdek, amaliyotda mavjud bo'lgan bir nechta kamchiliklar fuqarolarning mediatsiyaga bo'lgan munosabatini salbiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'lib kelmoqda. Shu munosabati bilan mediatsiya instituti amalga tatbiq etish kamchiliklari sifatida quydagilarni ko'rsatish mumkin:

➤ Fuqarolar o'rtasida "mediatsiya" tushunchasining to'liq shakillanmaganligi va mediatsiyaning mohiyati va uning afzalliklarini tushunish uchun huquqiy ong va madaniyat yetarli darajada emasligi.

➤ Mediatorlarni tayyorlash tizimi zamon talabida emasligi va tayyorlov sifatini nazorat qiluvchi mexanizm mavjud emasligi.

➤ Fuqarolar o'rtasida yoki yuridik shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etishda mediatorga bildirilgan ishonchni yetarli darajada emasligi.

➤ Mediatsiya jarayonini olib borishda yetarli professional kadrlar bazasining to'liq shakillanmaganligi.

➤ Professional mediatorlarni tayyorlashda tayyorlov kurslarining mukamal emasligi va ajratilgan soatlar hajmining kamligi.

➤ Mediatsiyadan keyin uning ijrosini taminlashda majburiy ijro qilish mexanizmi milliy qonunchiligimizda aniq belgilanmagan.

➤ Ayrim toifadagi ishlar bo'yicha mediatsiya o'tkazilishining majburiy tartibi shakillantirilmaganligi.

Yuqoridagi keltirilgan bir nechta muammolarni oldini olish, shu bilan birgalikda bizning huquqiy sohada mediatsiya instituti yangi institut sifatida kirib kelganligini hisobga olgan holda mediatsiya sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarni olib borish, ilmiy ishlanmalarni yaratish, chet el mamalakatlarida amaliyotga qo'llanilayotgan shu sohaga tegishli qonun hujjatlarini va tajribasini o'rganish, shu bilan birgalikda, keng targ'ibot olib borish<sup>27</sup>.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, nizolarni muqobil hal etish usullari fuqarolar o'rtasidagi nizolarni hal etishda qulayliklar yaratish, shuningdek, davlatning vakolatli sudlariga ish hajmini kamaytirishga qaratilgan maqsad hisoblanadi. Shu sababli, Hakamlik sudi jarayonlarining olib borish va mediatsiyani qo'llash jarayonida mexanizmni tartibga solishga qaratilgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarni qo'llab quvvatlashimiz va amaliyotga tatbiq qilishimiz darkor. Shu bilan birgalikda, Hakamlik sudlari nodavlat organ bo'lishini inobatga olib, hakamlik sudlari jarayonida mediatsiya qo'llanilgan taqdirda, mediatsiya jarayonidagi xarajatlarni ishni ko'rayotgan hakamlik sudlari qoplab berilishini ilmiy jamoamiz bilan yuqoridagi taklifni shakillantirdik<sup>28</sup>. Mediatsiyani takomillashtirish va fuqarolarning munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirish vazifalarini belgilab oldik va ushbu qo'yilgan maqsadga erishish uchun mediatsiya sohasida qonun hujjatlarini

<sup>26</sup> Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 80-85.

<sup>27</sup> Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE//Editorial team,(2021).–2021.

<sup>28</sup> Отахонов Фозилжон Хайдарович. Низоларни муқобил ҳал қилиш Альтернативное разрешение споров Мақолалар тўплами. – Т.: 2022. – 338 б



takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalarini ishlab chiqish va tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda, mediatorlarni sohalar bo'yicha tayyorlash ya'ni "Yo'nalishlar bo'yicha tayyorlov o'quv kurslari"ni tashkil etish va sohalariga bo'lingan holda ish olib borilishini tizimlashtirish, mediativ kelishuv ijrosini taminlash maqsadida mediatsiya ijrosini taminlash mexanizmini takomillashtirish va ijroni taminlovchi davlat tashkilotlari bilan hamkorlikni taminlash, mediatsiya jarayonida olib borilgan maxfiylik prinsipini inobatga olgan holda "Mediatsiyadan keyingi sud jarayonini yopiq holatda olib borish"ni taminlash, mediatsiyani Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekis 21<sup>1</sup>-moddasida va Jinoyat kodekisining 66<sup>1</sup>-moddasida belgilab qo'yilgan qonun buzarlilar uchun mediatsiyani qo'lash to'g'risida qonun hujjatlar ishlab chiqish va ularni ishlash mexanizmini yaratish dardkor.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibratova F. Foreign Practice of Use of Mediation on Collective Labor Disputes //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 57-62.
2. Ibratova F. B. et al. Special features of modern legal systems: cases and collisions. – 2017.
3. Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.
4. Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 86-92.
5. Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.
6. Ibratova F. Legal Problems of the Concepts Legality, Justification and Justice by Judicial Acts //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 16.
7. Boboqulovna I. F. et al. MEDIATSIYA–SUD JARAYONIDA DAVLAT BOJINI QAYTARIB OLISH VOSITASIMI YOKI NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISH USULI? //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 86-92.
8. Boboqulovna I. F., Mamarjon o'g'li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.
9. Ibratova F. B. The Concept and Characteristics of Bankruptcy Procedures for Business Entities With the Status of a Legal Entity //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 20. – C. 143-147.
10. Salimova.I.M. Nizolarni hal qilishning muqobil usullari. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) – T.: TDYU, 2022. – B.211



11. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – Т. 45.
12. Отахонов Ф. Правовые основы и перспективы развития медиации в Узбекистане // Правосудие. 2019.
13. Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //“SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022.
14. Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – Т. 2021. – С. 45.
15. Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 485-501.
16. Mediatsiya: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi, professional mediator A.A.Xakberdiyev – Toshkent: TDYUU, 2022. – B.131
17. Boboqulovna I. F., Orif o‘g‘li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 80-85.
18. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE//Editorial team,(2021).–2021.
19. Отахонов Фозилжон Хайдарович. Низоларни муқобил ҳал қилиш Альтернативное разрешение споров Мақолалар тўплами. – Т.: 2022. – 338 б.